

Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlari

2025-yil yanvar-noyabr oylari uchun


- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-noyabr oylarida, Farg'ona viloyatida jami 16 324,1 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 115,4 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

Hajm, mlrd so'mda O'sish sur'ati



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Farg'ona viloyati	14 886,4	115,4
shaharlar:		
Farg'ona shahri	3062,9	109,8
Qo'qon shahri	970,2	117,0
Quvasoy shahri	380,3	139,0
Marg'ilon shahri	1596,1	117,2

	Hajm, mlrdso'm	O'sish sur'ati, %
davomi		
tumanlar:		
Oltiariq tumani	469,1	108,0
Qo'shtepa tumani	587,2	113,4
Bag'dod tumani	369,8	119,2
Buvayda tumani	465,6	124,2
Beshariq tumani	236,8	111,8
Quva tumani	379,4	108,9
Uchko'prik tumani	479,0	123,3
Rishton tumani	196,8	136,4
So'x tumani	167,6	127,5
Toshloq tumani	496,6	100,2
O'zbekiston tumani	516,3	189,3
Farg'ona tumani	452,7	122,0
Dang'ara tumani	434,0	123,2
Furqat tumani	201,2	116,0
Yozyovon tumani	314,7	114,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 71,8 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 108,1 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 21,0 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 31,8 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 7,2 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 132,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	1 481,3	1045,4	175,9
<i>o'sish sur'ati, %</i>	94,0	66,3	143,8
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	5 281,2	2 372,7	990,5
<i>o'sish sur'ati, %</i>	117,6	52,9	130,2
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	4 965,7	11,4	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	103,7	0,2	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-noyabr oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2 702,6 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 123,3 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,0 % ga ko'payib, 16,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 53,0 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 120,4 % ni tashkil etgan holda 8 644,4 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 30,5 % ni yoki 4 977,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari

- yiriklar hajmi, mlrd so'mda
- kichik va mikrofirma hajmi, mlrd so'mda
- norasmiy sektor hajmi, mlrd so'mda
- yiriklar o'sish sur'ati
- ✕ kichik va mikrofirma o'sish sur'ati
- norasmiy sektor o'sish sur'ati



Shahar, tumanlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Farg'ona viloyati	2 702,6	8 644,4	4 977,1	123,3	120,4	103,7
shaharlar:						
Farg'ona shahri	414,7	2346,7	301,7	122,8	107,5	112,5
Qo'qon shahri	94,7	637,8	237,7	64,4	136,7	110,1
Quvasoy shahri	9,8	328,0	42,5	27,7	196,0	59,5
Marg'ilon shahri	847,3	597,7	151,1	128,5	106,3	107,9
tumanlar:						
Oltiariq tumani	21,0	310,6	137,5	39,3	126,2	101,9
Qo'shtepa tumani	290,3	167,2	129,7	138,4	90,7	104,8
Bag'dod tumani	30,0	204,2	135,6	191,0	134,5	94,7
Buvayda tumani	89,2	296,4	80,0	98,1	165,2	76,0
Beshariq tumani	16,6	116,7	103,4	151,9	119,4	100,1
Quva tumani	19,8	189,0	170,6	130,2	133,3	88,8
Uchko'prik tumani	15,0	414,7	49,3	135,6	126,0	101,7
Rishton tumani	13,8	88,8	94,3	131,5	113,6	170,0
So'x tumani	27,6	119,2	20,8	512,3	116,8	86,3
Toshloq tumani	16,9	303,9	175,8	165,7	87,6	127,8
O'zbekiston tumani	14,4	445,7	56,2	81,6	262,8	65,0
Farg'ona tumani	144,3	200,7	107,7	169,8	106,9	109,3
Dang'ara tumani	31,8	337,5	64,7	36,6	169,0	97,9
Furqat tumani	12,5	96,4	92,3	173,2	114,8	112,2
Yozyovon tumani	64,2	162,7	87,8	251,6	87,5	137,7

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari 2024-yilning mos davriga nisbatan So'x tumanida 5,1 marta va Yozyovon tumanida 2,5 marta qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari O'zbekiston tumanida (2024-

yilning mos davriga nisbatan 2,6 marta), Quvasoy shahrida (2024-yilning mos davriga nisbatan 2,0 marta) va Dang'ara tumanida (1,7 marta) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining Farg'ona viloyat boshqarmasi statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-ion-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
L.Yefimova
73 241-98-42